



“TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY
JURNALI**

Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 10 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. eshbolta_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. navruza_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. nurillo_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. muxiddin_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,
Termiz, O'zbekiston. oltiboy_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. maqsuda_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv_urolova@tues.uz

MUNDARIJA

G. E. TURAYEVA

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

G.T. JUMAYEVA

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

O.Ch.XOLOV

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

N.M. SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

M.Y.MADIEVA

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

S.Q. ESHBOYEVA

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

N.N. SHODIYEVA

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

K.Sh.OLTIBOYEVA

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

U.A. TASHBAYEVA

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

M.Y.MADIEVA

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

R.D. NORQOBILOVA

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

G'.A. MAMARAJABOV

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

F.A. ABDURAZZOQOV

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

A.Ch. QOSIMOV

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

M.X. FAYZULLAYEVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

S.A. JABBOROVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

F. YORMATOV

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari70

R. R. KHAMRAEVA

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

I.H. JUMAYEV

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

N.A. UMAROVA

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

I.B. QARSHIYEVA

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89





Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi

ZAMONAVIY TA‘LIM SHAROITIDA XORIJIY TAJRIBA VA STEAM TA‘LIMI

ANNOTATSIIYA

Ushbu maqolada dunyoning yetakchi mamlakatlarida paydo bo‘lgan va hozirda tez sur‘atlarda rivojlanib borayotgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art and Mathematics) tizimi yangi ta‘lim uslubining mohiyatini ochib berishdan iborat. Maqolada STEAM-ta‘limning asosiy xususiyatlari va uni boshlang‘ich sinflarda o‘qitish jarayoniga joriy etish natijalari tahlillar asosida yoritildi. Bu tadqiqotdan kelib chiqib, maqolada STEAM yondashuv asosida qay tarzda integratsiyalash mumkinligi haqidagi ma‘lumotlar o‘qituvchilar, o‘quvchilar va talabalar bilan ishlashda foydalanishi uchun taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, fanlararo bog‘liqlik, STEAM, tadqiqot, o‘qituvchi, talabalar bilan ishlash, amaliyot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается сущность системы STEAM (Science, Technology, Engineering, Art and Mathematics), которая возникла в ведущих странах мира и в настоящее время стремительно развивается как новый образовательный метод. В статье освещены основные характеристики STEAM-образования и результаты его внедрения в процесс обучения в начальных классах на основе анализа. На основе данного исследования в статье предложены рекомендации по тому, как можно интегрировать STEAM-подход, которые могут быть использованы в работе с учителями, учащимися и студентами.

Ключевые слова: интеграция, междисциплинарность, STEAM, исследования, преподаватель, работа со студентами, практика.

ABSTRACT

This article aims to reveal the essence of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, and Mathematics) system, which has emerged in the world's leading countries and is currently developing rapidly as a new educational method. The article highlights the main characteristics of STEAM education and presents an analysis of its implementation in the teaching process of primary grades. Based on this research, the article provides suggestions on how to integrate the STEAM approach, offering insights that can be used by teachers, students, and learners.

Keys words: Integration, Interdisciplinary connection, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics), Research, Teacher, Working with students, Practice.

Kirish. O‘zbekiston uzoq tarix va an‘anaga ega davlat bo‘lib, uning aholisi Markaziy Osiyo aholisining 40% dan ortig‘ini tashkil qiladi. O‘zbekiston islom davlati, lekin u 100 yildan ortiq vaqt davomida Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi nazoratida bo‘lgan, shuning uchun ham sotsializm ta‘siri butun jamiyatda biroz bo‘lsa-da saqlanib qolgan. Yildan-yilga O‘zbekistonda ta‘limni milliy taraqqiyot garovi, degan e‘tiqod asosida ta‘limni isloh qilish bo‘yicha sa‘y-harakatlar jadallik bilan yuqori pog‘onaga chiqib bormoqda. Shunday bo‘lsa-da, hozirda ta‘lim bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lsa-da, oliy ta‘limda professor-o‘qituvchilar va talabalarining ilmiy salohiyati, maktab ta‘limida o‘qituvchi va o‘quvchining

hamkorlik faoliyatini integratsiyalash zaruriyatiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Sinfda, auditoriyada baholash dasturlari asosida monitoring qilish yoki milliy darajada ta‘lim natijalarini muntazam tizim darajasida baholashga e‘tibor qaratish bugun har kungidan-da zarur ehtiyoj sifatida qaralmoqda. Shu sababli mazkur jarayonni tadqiqotimiz doirasida STEAM dasturi asosida amalga oshirishni tavsiya etamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta‘limda yangi STEM yondashuvi rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanilib, jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda va xususan, T. Anisimova, N. Balyk, O. Barna, T. Barnaby, C. Baumer, O. Baryllyk-Kurakova, M. Boyko, A. Carnev-

ale, S. Ceylan, T. kabi ukrainalik va xorijiy tadqiqotchilarning maqolalarida, Korbett, S. Dembitska, C. Dumaresq, X. Firman, L. Hrinevich, X. Jang, I. Kaniawati, P. Korbel, I. Korobova, O. Kuzmenko, M. Melton, V. Oleksiuk, V. Osadchiy, F. Sobirova, B. Sejati, S. Semerikov, K. Seyit, O. Shatunova, G. Shmyger, G. Siekmann, N. Smit, M. Song, V. Soo, A. Zeynep, N. Valko va boshqalarda "STEM kompetensiyasi" tushunchasini aniqlash, uning tuzilishi va modellarini ishlab chiqish masalasiga bag'ishlangan.

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, STEM kompetensiyasi insonning STEM fanlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini kundalik hayotida, ish joyida yoki ta'lim kontekstida to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Ushbu vakolatlar mavjud bilimlarning alohida sohalari (masalan, alohida jismoniy yoki raqamli kompetensiya) an'anaviy chegaralari doirasida cheklanmasligi va rivojlantirilmasligi kerak deb yuritilgan.

Avstraliyalik tadqiqotchilar G. Siekmann va P. Korbel o'zlarining maqolalarida STEM kompetensiyasini emas, balki STEM sohasida topilgan turli ko'nikmalarni aniqlaydilar. Ular STEM ko'nikmalarini texnik deb tasniflaydilar, chunki ularning shakllanishidan maqsad texnologiya rivojlanishining jadal sur'atlari tufayli odamlarning ish va / yoki hayotga moslashish qobiliyatini oshirish deb hisoblashadi. Shunday qilib, G. Siekmann va P. Korbelning fikricha, STEM ko'nikmalari muhandislik (texnik va texnologik) yoki ilmiy mahsulotlar va xizmatlarni loyihalash, yaratish va rivojlantirish maqsadida ilmiy bilimlarni (matematik ko'nikmalarga asoslangan) ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mazmuniga ko'ra, empirik (boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan bog'liq jarayonlarga oid adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni tizimlashtirish) metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Dunyoda tabiiy-matematik ta'limni modernizatsiya qilish va takomillashtirish yo'llaridan biri bu STEAM ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Uni amalga oshirishdan asosiy maqsad o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda (STEM-sanoat tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish asosida) texnik va ilmiy ta'limni rivojlantirish orqali odamlarning imkoniyatlarini

kengaytirishdir. Ushbu yondashuvni boshlang'ich maktabdan oliy ta'limgacha qo'llash xalqni intellektual investitsiyalarning to'rtta toifasi bilan ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega, jumladan STEM sohasidagi vakolatlarni rivojlantirish bugungi dunyoda dolzarb hisoblaydi.

STEM-ta'limning asosi fan va matematika fanlarini muhandislik va texnik fanlar - "STEM fanlari" (matematika, fizika, kimyo, biologiya, muhandislik, informatika, astronomiya va geografiya) bilan integratsiyalashuvdir. STEM sohasidagi kompetensiyalarni rivojlantirishning zaruriy shartlari matematik kompetensiya va fan va texnologiya sohasidagi asosiy kompetensiyalardir. Ular Yevropa Ittifoqida umrbod ta'limning kalitlari sifatida belgilangan[1; 2; 3].

Tadqiqot natijasi o'qituvchilar uchun STEAM kompetensiyasi modelini ishlab chiqishdir. Uning tarkibiy qismlari nafaqat tegishli xorijiy tajriba asosida tanlanadi, balki o'qituvchilarning so'rovi bilan ham tasdiqlanadi. O'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, biz STEAM fanlaridan dars beradigan va o'z o'quvchilarining STEAM kompetensiyasini shakllantira oladigan o'qituvchilarning STEAM kompetensiyasini shakllantirish zarurligi to'g'risida xulosa chiqarishimiz mumkin. Talabalar va talabalarining STEAM kompetensiyasini rivojlantirish o'qituvchilardan maktab va oliy ta'lim mazmunini bugungi kun talablariga muvofiq yangilashni talab qiladi.

Xulosa: STEAM ta'limini rivojlantirish va uning tendensiyalari muhim ahamiyatga ega va bu dunyoda ustuvor hisoblanadi. Hozirgi ehtiyojlar STEM/STEAM ta'limi sohasida tizimli o'qitishni talab qiladi, bu xorijiy olimlarning tajribasiva tegishli tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Umumiy xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda STEAM ta'limini joriy qilishda kompetensiyaviy yondashuvning muhim vazifalari – bu o'quvchida ilmiy dunyoqarashini va tanqidiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan. Bu esa o'quvchida tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyasining shakllanishini ta'minlaydi. STEAM ta'limi joriy etishda psixologik-gigiyenik talablarga e'tibor qaratganligi, o'quv jarayonida ijobiy natijalar – bu bolalarda tahliliy fikrlash va aniq fanlarga qiziqishni rivojlantiradi hamda bolalar nafaqat individual, balki jamoa bilan ishlashga o'rganadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lubkina V (Lubkina, V) ; Usca, S (Usca, S) ; Zvaigzne, A (Zvaigzne, A) Steam-projects in the Design Activities of Pupils and Students. Society, Integration, Education. Page 248-258. DOI. 10.17770/sie2018vol1.3076. May 25-26, 2018.
2. Herro, D (Herro, Danielle) [1] ; Quigley, C (Quigley, Cassie) [2] ; Jacques, LA (Jacques, Lorraine A.) [3] , [4] Examining technology integration in middle school STEAM units. Volume 27. Issue 4 Page 485-498. DOI 10.1080/1475939X.2018.1514322. 2018-12-28.
3. Yumi Lee | orcid: 0000-0003-2412-9522 Department of Russian Education, Tashkent State Pedagogical University, Bunyodkor 27, Chilonzor, Tashkent, Uzbekistan. 4 May 2021. Examining the Impact of STEAM Education Reform on Teachers' Perceptions about STEAM in Uzbekistan.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma. -Toshkent. "Ilm Ziyo", 2009. -B.192.
5. Sangirova Z.B. Umumta'lim maktablarida STEAM yondashuv asosida o'quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi (tabiiy fanlarni o'qitish misolida) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi 2022. B.32-43.
6. Salokhitdinova N.M. "Development prospects of primary education integration(on the example of exact and natural sciences)" // Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. P.221-225. Special Issue-7 (2021).
7. Salokhitdinova N.M. Raqamli dunyo sharoitida boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasining rivojlanish istiqbollari. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi ilmiy-uslubiy jurnal №1/2023. ISSN 0000-0000. B. 150-156.